



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulaton Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUHLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	
AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	



ISHLAB CHIQRARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBÐ-DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEXANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	



YASHIL INVESTITSİYALAR BOZORI MEXANIZMINING DASTAKLARI

Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi

O'zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich tayanch doktranti

Annotatsiya. Ushbu maqola yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yashil investitsiyalash bozorining ahamiyati, mavjud yashil investitsiyalash bozorining amal qilish mexanizmini tahlil qilish va baholash hamda uni takomillashtirish chora-tadbirlarini taklif qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida yashil investitsiyalash tizimida qo'llanilayotgan moliyaviy instrumentlarning integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar aniqlanadi va ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy yashil taksonomiya, yashil investitsiyalar, yashil aksiyalar, yashil obligatsiyalar, institutsional integratsiya, yashil investitsiyalash bozori.

Abstract. This article is devoted to the importance of the green investment market in the development of the green economy, the analysis and assessment of the functioning mechanism of the existing green investment market, and the proposal of measures for its improvement. Within the framework of the study, the problems arising from the integration of financial instruments used in the green investment system are identified, and practical recommendations aimed at eliminating these problems are developed.

Key words: national green taxonomy, green investments, green shares, green bonds, institutional integration, green investment market.

Аннотация. Данная статья посвящена значению рынка зелёного инвестирования в развитии зелёной экономики, анализу и оценке механизма функционирования существующего рынка зелёного инвестирования, а также разработке мер по его совершенствованию. В рамках исследования выявляются проблемы, возникающие в результате интеграции финансовых инструментов, применяемых в системе зелёного инвестирования, и разрабатываются практические предложения, направленные на устранение этих проблем.

Ключевые слова: национальная зелёная таксономия, зелёные инвестиции, зелёные акции, зелёные облигации, институциональная интеграция, рынок зелёного инвестирования.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosat tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning jadallashuvi butun jahon mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o'tish zaruratiga olib kelmoqda. Ushbu jarayonda yashil investitsiyalash bozori muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'lib, ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Yashil investitsiyalash bozorining samarali faoliyat yuritishi aniq institutsional tuzilma, moliyaviy instrumentlar va tartibga solish mexanizmlarining mavjudligiga bog'liq. Bozor mexanizmlari moliyaviy instrumentlar, institutsional tuzilmalar, normativ-huquqiy tartibga solish va milliy yashil taksonomiya asosida shakllanadi. Xususan, yashil aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa turdagi innovatsion moliyaviy instrumentlar investitsiya jarayonlarining asosiy vositalari sifatida keng tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, ushbu instrumentlarning integratsiyalashuvi, ularning samaradorligini baholash hamda bozor ishtirokchilari o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish yashil investitsiyalash bozorining imkoniyatlarini kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish, avvalo, qayta tiklanuvchi energiya sohasiga yo'naltiriladigan investitsiya resurslarining hajmi, sifati va barqarorligiga bevosita bog'liq. Shu jumladan, yashil investitsiyalash mexanizmlarini rivojlantirish ushbu jarayonning muhim moliyaviy asosi sifatida namoyon bo'ladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlarini oshirish katta hajmdagi uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni talab etadi. Bunday investitsiyalarni an'anaviy moliyalashtirish manbalari hisobidan to'liq ta'minlash



imkoniyati cheklangan bo'lib, ekologik risklarni hisobga oluvchi yashil investitsiyalash bozori mexanizmlaridan foydalanish zaruratini tug'diradi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayonida yashil investitsiyalash bozori orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish, jumladan, quyosh, shamol va gidroenergetika sohalarida investitsiya faolligini oshirish imkoniyati kengayadi. Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlar ushbu sohalarga xususiy va institutsional investorlarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Natijada, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar barqaror manbalar orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalash mexanizmlaridan samarali foydalanish milliy yashil taksonomiyaning mavjudligi va institutsional muvofiqlashtirish darajasiga ham bog'liq. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining ESG talablariga muvofiqligi aniq belgilangan taqdirda, investitsiya resurslarining maqsadli va samarali yo'naltirilishi ta'minlanadi. Bu esa “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayonida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini oshirish bilan bir qatorda, investitsiya risklarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oxirgi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yashil investitsiyalar bozorining dolzarbligi nafaqat ilmiy va nazariy adabiyotlarda, balki xalqaro iqtisodiy siyosat kun tartibida ham muhim masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, yashil investitsiyalar bozori faqat ekologik loyihalarni moliyalashtirish vositasi emas, balki iqtisodiy o'sish, institutsional transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni rag'batlantiruvchi kompleks mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, yashil investitsiyalar bozori kapital oqimlarini ekologik barqaror yo'nalishlarga safarbar etish orqali iqtisodiyotning past uglerodli modelga o'tishida muhim rol o'ynaydi.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar bozorining samaradorligi davlat siyosati, moliyaviy institutlar va institutsional infratuzilma bilan qanchalik integratsiyalashganligiga bevosita bog'liq. Blyth W va Baron R. (2003) tadqiqotida Kyoto protokoli doirasida shakllangan “Green Investment Scheme” (GIS) mexanizmi tahlil qilinib, emissiya kvotalari savdosidan tushgan mablag'larni qayta tiklanuvchi energiya va past uglerodli texnologiyalarga yo'naltirish orqali ekologik modernizatsiyani jadallashtirish mumkinligi asoslab berilgan. Mualliflarning fikricha, GIS mexanizmi oddiy moliyaviy instrument emas, balki davlat siyosati, ekologik boshqaruv va investitsiya jarayonlarini o'zaro bog'lovchi institutsional tizim hisoblanadi. Tadqiqotda GIS mexanizmining ikki asosiy yo'nalishi ajratib ko'rsatiladi.

- Birinchi yo'nalish emissiya kvotalarini sotishdan tushgan mablag'larni qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda past uglerodli texnologiyalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotni ekologik modernizatsiya qilishga qaratilgan.
- Ikkinchi yo'nalish esa institutsional salohiyatni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, monitoring tizimlari, milliy inventarizatsiya va iqlim siyosatini takomillashtirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv yashil investitsiyalar bozorining amal qilish mexanizmi moliyaviy resurslarni ekologik loyihalarga samarali yo'naltirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashini ko'rsatadi.

Stephany Griffith-Jones (2011) o'z tadqiqotlarida yashil investitsiyalar bozorining rivojlanishida davlat moliyaviy institutlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, yashil investitsiyalar bozori o'z-o'zidan shakllanmaydi va davlatning faol ishtirokini talab etadi. Ayniqsa, milliy rivojlanish banklari hamda xalqaro moliyaviy institutlar orqali uzoq muddatli kapitalni jalb qilish yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim omil hisoblanadi. Griffith-Jones yashil investitsiyalar mexanizmi davlat siyosati, subsidiyalar va kafolatlar orqali xususiy sektorni rag'batlantirishga asoslanishini qayd etadi.

Corfee-Morlot, Kamal-Chaoui va Donovan (2012) tomonidan OECD uchun tayyorlangan “Towards a Green Investment Policy Framework” hisobotida esa yashil investitsiyalar bozorining institutsional va siyosiy asoslari keng yoritilgan. Mazkur hisobotda yashil investitsiyalar siyosatini rivojlantirishning beshta asosiy elementi ajratib ko'rsatiladi:

1. uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgilash va siyosatni uyg'unlashtirish;
2. investitsion jozibadorlikni oshirish va bozor rag'batlarini kuchaytirish;
3. yangi yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy vositalarni joriy etish;
4. institutsional va inson salohiyatini rivojlantirish;
5. yashil biznes va iste'molchilar xulq-atvorini rag'batlantirish.

Ushbu yondashuv yashil investitsiyalar bozorining amal qilish mexanizmi iqtisodiy, institutsional va innovatsion omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Yashil investitsiyalar bozori mexanizmining moliyaviy dastaklari sifatida yashil obligatsiyalar, yashil aksiyalar, yashil kreditlar, yashil investitsiya fondlari hamda ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur moliyaviy instrumentlar ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish jarayonida kapital oqimlarini samarali safarbar etish, investitsiyalarni iqtisodiyotning “yashil” tarmoqlariga yo'naltirish va



ekologik risklarni kamaytirish vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, yashil investitsiyalar bozori mexanizmi moliyaviy resurslarni past uglerodli iqtisodiyotga yo'naltirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

G20 Green Finance Study Group (2016) hisobotida ta'kidlanishicha, yashil investitsiyalar bozorining samarali faoliyat yuritishi ekologik loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi moliyaviy dastaklarning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Hisobotga ko'ra, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va boshqa innovatsion moliyaviy vositalar ekologik loyihalarga kapital oqimini kengaytirish, investitsion risklarni kamaytirish hamda iqtisodiyotning past uglerodli rivojlanishini rag'batlantirish funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, mazkur moliyaviy instrumentlar investorlar uchun uzoq muddatli barqaror investitsion muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Taiki Sakata va hammualliflar tomonidan tayyorlangan "Green Finance Handbook" qo'llanmasida ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillari yashil moliya tizimining asosiy institutsional mexanizmlaridan biri sifatida talqin etiladi. Mualliflarning fikricha, ESG tamoyillari investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida kompaniyalar faoliyatining ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Natijada, ESG mezonlariga asoslangan investitsiyalar ekologik risklarni kamaytirish, investitsion barqarorlikni oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash orqali yashil iqtisodiyot rivojlanishini rag'batlantiradi. Qo'llanmada ta'kidlanishicha, ESG tizimining ekologik (Environmental) komponenti qayta tiklanuvchi energiya manbalari, iqlim xavfi, issiqxona gazlari emissiyasi, energiya samaradorligi, suv resurslarini boshqarish hamda chiqindilarni qayta ishlash kabi ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Ijtimoiy (Social) komponent sog'liqni saqlash va xavfsizlik, inson huquqlari, mehnat sharoitlari, xodimlar bilan munosabatlar hamda ijtimoiy inklyuziya masalalarini o'z ichiga oladi. Boshqaruv (Governance) komponenti esa korporativ etik me'yorlar, boshqaruv tuzilmasi, aksiyadorlar huquqlari, manfaatdor tomonlar bilan aloqalar va ijroiya boshqaruvi samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv ESG tamoyillarining yashil investitsiyalar bozorida risklarni boshqarish, korporativ shaffoflikni oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi institutsional ahamiyatini namoyon etadi.

Yashil moliyalashtirish tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi hamda yashil moliyaviy instrumentlar o'rtasidagi institutsional va funksional bog'liqlikni tahlil qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil subsidiyalalar hamda davlat budjeti xarajatlarini iqlim mezonlari asosida markirovkalash jarayonlarining samaradorligi yagona va ilmiy asoslangan taksonomiya tizimining mavjudligiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi ekologik barqaror faoliyat turlarini identifikatsiya qilish, investitsion oqimlarni ustuvor "yashil" yo'nalishlarga yo'naltirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda yashil investitsiyalar bozori mexanizmining institutsional va moliyaviy dastaklariga tadqiqot metodologiyasi doirasida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning axborot bazasini internet tarmog'idagi ochiq rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro moliya institutlari hisobotlari hamda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida yashil investitsiyalar bozori mexanizmining shakllanishi, uning institutsional infratuzilmasi hamda moliyaviy dastaklarining iqtisodiy tizimdagi funksional ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan baholanadi.

Tadqiqot doirasida O'zbekistonda yashil investitsiyalar bozori mexanizmini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar va mavjud moliyaviy instrumentlar hujjatli tahlil usuli asosida o'rganiladi. Xususan, milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil investitsiya fondlari, davlat budjetini iqlim jihatidan markirovkalash tizimi, ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya instrumentlari hamda xalqaro moliyalashtirish mexanizmlarining amal qilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu dastaklarning investitsiya oqimlarini ekologik barqaror faoliyat turlariga yo'naltirishdagi roli, kapital bozorlaridagi samaradorligi va institutsional cheklovlari aniqlanadi hamda mavjud muammolar asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, tadqiqotda yashil investitsiyalar bozori mexanizmi dastaklarining xorijiy amaliyoti, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar natijalari hamda O'zbekistondagi mavjud makroiqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar asosida deskriptiv va qiyosiy tahlillar amalga oshiriladi. Yashil investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat siyosati, moliyaviy institutlar, kapital bozori instrumentlari, ESG standartlari va raqamli monitoring tizimlarining o'zaro integratsiyalashuv darajasi alohida ilmiy yondashuv asosida baholanadi.

Olingan empirik va institutsional natijalar asosida O'zbekiston sharoitiga mos yashil investitsiyalar bozori mexanizmining integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqiladi. Mazkur model tizimli yondashuv asosida milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi, Milliy yashil investitsiyalar jamg'armasi hamda raqamli monitoring va



verifikatsiya platformasi o'rtasidagi institutsional va funksional bog'liqlikni ifodalaydi. Taklif etilayotgan konseptual yondashuv yashil investitsiyalar bozorida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, ekologik loyihalarga kapital oqimlarini samarali safarbar etish hamda iqtisodiyotning past uglerodli va barqaror rivojlanishini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimini shakllantirish hamda iqtisodiyotning past uglerodli rivojlanish modeliga o'tishini ta'minlash maqsadida bir qator institutsional va moliyaviy instrumentlar amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar hamda iqlimga yo'naltirilgan davlat moliyasi mexanizmlari mamlakatda CO₂ emissiyasini kamaytirish va ekologik barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim moliyaviy dastaklari sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur instrumentlarning joriy etilishi O'zbekistonning "yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi hamda xalqaro iqlim majburiyatlari bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish;
- davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralari ko'rish;
- "yashil" iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Ushbu vazifalar iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish hamda issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish ustuvor strategik yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur strategik yondashuv yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish uchun institutsional asos yaratdi.

Yashil obligatsiyalar ushbu yo'nalishdagi eng muhim moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. 2023-yilda MDH davlatlari orasida ilk bor O'zbekiston tomonidan 4,25 trln so'm miqdoridagi yashil suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 mln AQSh dollari miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar London Stock Exchangeda joylashtirildi. Mazkur obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag'larni qayta tiklanuvchi energetika, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish rejalashtirilgan. Ushbu jarayon mamlakatda CO₂ emissiyasini kamaytirish va "yashil" investitsiyalar ulushini oshirishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy mexanizm sifatida baholanadi. Mazkur jarayonning amaliy jihatlari xorijiy investitsiyalar tarkibida "yashil" kapital oqimlari ulushining ortib borayotganida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilma loyihalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining kengayishi O'zbekistonning mintaqadagi yashil investitsiyalar bozorida faolligini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.




1-rasm. O'zbekiston va ayrim qiyosiy mamlakatlarda yashil va raqamli to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar



Mazkur diagrammada ayrim mamlakatlar va mintaqalar kesimida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) tarkibida "Green FDI" va "Digital FDI" ulushining taqqoslama ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar ulushi ko'plab mamlakatlarda raqamli investitsiyalarga nisbatan ustunlik qilmoqda, bu esa global investitsiya oqimlarida ekologik barqarorlik tamoyillarining tobora kuchayib borayotganligini ifodalaydi.

Xususan, Misr, Laos va O'zbekiston kabi davlatlarda Green FDI ulushi nisbatan yuqori ko'rsatkichni namoyon etgan. Mazkur holat mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi hamda ekologik infratuzilma loyihalariga xorijiy kapital oqimlarining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo davlatlari kesimida tahlil qilinganda, Qirg'iziston va O'zbekiston yashil investitsiyalar ulushi bo'yicha nisbatan yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, Qozog'iston va Turkmanistonda ushbu ko'rsatkich ancha past darajada shakllangan. Mazkur farqlar mamlakatlarning institutsional islohotlari, investitsion muhiti, yashil energetika siyosati hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Mazkur tendensiyalar O'zbekistonda yashil moliyalashtirish instrumentlari, xususan, yashil obligatsiyalar bozorining shakllanishi va rivojlanishi bilan ham bevosita bog'liq. So'nggi yillarda ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan davlat siyosati hamda xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyaning kuchayishi natijasida yashil obligatsiyalar orqali qayta tiklanuvchi energetika, suv resurslarini boshqarish va ekologik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Quyidagi rasmda O'zbekistonning 2023-yildagi yashil obligatsiyalar emissiyasidan shakllangan mablag'larning hududlar kesimidagi taqsimoti aks ettirilgan bo'lib, unda yashil investitsiyalarning hududlar bo'yicha differensial darajada shakllangani hamda ekologik va infratuzilmaviy ehtiyojlarga mos ravishda yo'naltirilgani ko'rsatilgan.



2-rasm. Sof tushumlarning hududlar kesimida taqsimlanishi

O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, mamlakat hududlari resurslar va ehtiyojlar kesimida yashil investitsiyalar taqsimotining notekis shakllanayotgani kuzatiladi. Shu sababli, yashil obligatsiyalar mablag'larining hududlar kesimidagi taqsimotini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning 2023-yildagi yashil obligatsiyalar emissiyasidan tushgan mablag'larning hududlar bo'yicha taqsimoti nisbatan muvozanatli shakllangan. Xususan, jami sof tushumlar tarkibida hududlar ulushi Namangan viloyatida eng past — 2,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, suv tanqisligi yuqori bo'lgan Qashqadaryo viloyatida eng yuqori — 10,5 foiz darajasida qayd etilgan. Hududlar bo'yicha o'rtacha ulush esa 5,9 foizni tashkil etadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar yashil investitsiyalar bozorini rivojlantirishda moliyaviy instrumentlar va institutsional mexanizmlar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Xalqaro amaliyotda yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalar hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ekologik dasturlar yagona strategik yondashuv asosida amalga oshirilishi yashil moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, mamlakatda ekologik loyihalarni moliyalashtirish jarayonida resurslarni muvofiqlashtirilgan holda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar bozori mexanizmi iqtisodiyotning barqaror va past uglerodli rivojlanishini ta'minlashda muhim institutsional hamda moliyaviy vosita hisoblanadi. Xususan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalar hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ekologik siyosat chora-tadbirlari mamlakatda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonining moliyaviy asoslarini shakllantirmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil moliyalashtirish instrumentlari amaliyotga joriy etilayotgani hamda xalqaro kapital bozorlari bilan integratsiyaning kuchayishi yashil investitsiyalar oqimining ortishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida yashil investitsiyalar bozori mexanizmining institutsional va metodologik jihatdan to'liq integratsiyalashmaganligi aniqlandi. Xususan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlash, davlat budjetining iqlim jihatidan markirovkalash tizimi hamda xorijiy yashil investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar yagona platforma doirasida muvofiqlashtirilmagan. Natijada, ekologik loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini baholash, monitoring qilish va investitsiya oqimlarining shaffofligini ta'minlash jarayonida muayyan institutsional cheklovlar yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida, avvalo, yashil moliyalashtirishning barcha yo'nalishlarini yagona milliy yashil taksonomiya asosida integratsiyalash zarur. Bu ekologik barqaror faoliyat turlarini aniq tasniflash, investitsion resurslarni ustuvor "yashil" loyihalarga samarali yo'naltirish hamda xalqaro ESG standartlariga mos moliyalashtirish tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, yashil moliyalashtirish tizimida mavjud resurslarning tarqoqligini kamaytirish va ularning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash uchun davlat darajasida maxsus koordinatsion moliyaviy institutni shakllantirish zarur. Ushbu mexanizm orqali ekologik loyihalarga ajratilayotgan mablag'larni ustuvor yo'nalishlar kesimida boshqarish, hududlar bo'yicha investitsion nomutanosiblikni qisqartirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish imkoniyati kengayadi. Natijada, yashil iqtisodiyotga oid strategik dasturlarni moliyalashtirishning uzluksizligi ta'minlanib, iqlim maqsadlariga erishish bo'yicha milliy moliyaviy salohiyat mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Blyth W., Baron R. *Green Investment Schemes: Options and Issues*. Paris: OECD/IEA, 2003. DOI: <https://doi.org/10.1787/4b69c0d2-en>
2. Griffith-Jones S., Ocampo J.A., Spratt S. *Financing Renewable Energy in Developing Countries: Mechanisms and Responsibilities*. European Report on Development, 2011.
3. OECD. *Towards a Green Investment Policy Framework: The Case of Low-Carbon, Climate-Resilient Infrastructure*. OECD Environment Working Papers, 2012, No. 48. DOI: <https://doi.org/10.1787/5k8zth7s6s6d-en>
4. G20 Green Finance Study Group. *G20 Green Finance Synthesis Report*. China: G20 Green Finance Study Group, 2016.
5. Sakata T., Wujuan L., Takahashi M. va boshq. *Green Finance Handbook*. Hitachi Financial Institutions Business Unit, 2024. URL: https://www.hitachi.co.jp/products/it/finance/topics/20250225_01en-topics.pdf
6. <https://gov.uz/oz/news/view/3061>
7. OECD. *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan*. OECD Publishing, Paris, 2025, p. 41. DOI: <https://doi.org/10.1787/20865f29-en>
8. *Uzbekistan October 2023 Green Bond First Allocation and Impact Report*. Tashkent: Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan, UNDP, 2024, p. 28. URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/uzbekistan-october-2023-green-bond-first-allocation-and-impact-report>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
